

# TURSUNBOY ADASHBOYEV IJODIDA ONA TABIAT VA VATAN MADHI

*Norbekova Sitora Zayniddin qizi,*

*O'z-Fin pedagogika instituti talabasi.*

*Ilmiy rahbar: G.Raximova, O'z-Fin pedagogika instituti dotsenti*

**Annotatsiya:** Ushbu ilmiy maqolada bolalar va kattalar shoiri va yozuvchisi Tursunboy Adashboev asarlarida vatan va tabiat madhining badiiy aks etilishi jarayonlari yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** “Kamolning olmasi”, vatan madhi, vatanparvarlik, tabiatni asrash, qushlar timsoli, xotiralar to‘plami, humor, hayot falsafasi, tabiat tasviri, parodiya, manzara, mo‘jiza.

Dildan chiqayotgan tug‘yonlarni qog‘ozga qoralash, mahorat bilan aks ettirish va shu bitganlari asosida kitobxonlar qalbidan joy olib, ularning sevimli adibiga aylanish oson ish emas. Shoир Tursunboy Adashboev mana shu mas’uliyatli ishni uddasidan chiqqan ijodkordir. “Bo‘ladigan bola boshidan ma’lum” deganlaridek, shoир yoshligidan so‘zlarni qofiyaga keltirishga, go‘zal satrlar bitishga, o‘zgalarning gapiga mazmunli va qofiyali holda javob qaytarib ularni lol qoldirishga ixlosmand edi.

Ilk ijod namunasi o‘zbek tilida “Kamolning olmasi” nomi ostida chop etiladi. Shundan so‘ng “Biz sayohatchilar”, “Olatog‘-lolatog‘”, “Jo‘nataman quyoshni”, “Arslonbobo afsonasi”, “Uch bo‘taloq va sirli qovoq”, “Topishmoqli alifbe” singari she’riy to‘plamlari bosib chiqadi.

Tursunboy Adashboev tevarak-atrofга bolalarcha nazar tashlab, ular tilida o‘z asarlarini yozadi. Bola ruhiyatini yumorga va hazil-mutoyibaga moyil tarzda sodda ifodalaydi. Uning kattalar uchun yozilgan asarida ham o‘ziga xoslik va o‘zgacha badiiy mahoratlilik sezilib turadi. Bolalar uchun yozganlarida bolaga aylanib ijod qilsa, kattalar uchun yozmoqni niyat qilib qo‘liga qalam olganda dunyoga falsafiy nigohda boqa boshlaydi. Quvonarlisi shuki, har ikki toifa uchun bitilgan ijod namunalari o‘z o‘rnida ma’lum va mashhur, kitobxonlarga birdek manzur bo‘ladi.

Ijodiy xotirjamlikka berilish, o‘z qobig‘idan tashqari chiqa olmasligini badiiy mahorat kushandasи deb bilgan shoир badiiy ijodda ham o‘z e‘tiqodiga qat’iy amal qiladi. Bu esa ijod yo‘lida adibning chinakam yutug‘i bo‘lib xizmat qildi. Xalqqa manzur bo‘ladigan va izlab, topib o‘qiladigan qator asarları yaralishiga zamin yaratdi. Uning “Kamolning olmasi”, “Biz sayohatchilar”, “Olatog‘liq bo‘laman”, “Surnay”, “Arslonbobo sharsharasi” kabi to‘plamlari beg‘ubor bolalik, Vatan, ona tabiat haqidagi she’rlar bilan boyitilgan bo‘lib, har bir she’rda kichkintoylarga tarbiyaviy saboqlarni berishga qaratilgan tasvirlarni ko‘rishimiz mumkin. So‘nggi yillarda e‘lon qilingan “Uch baqaloq va sirli qovoq”, “Orzularim – qo‘sh qanotim”, “Oltin yolli tulpor”, “Latifboyning loflari” kabi bolalarbop tilda yozilgan kitoblari o‘zida samimiy humor va qiziqarli, ibratli sahnalarini mujassamlashtirgani bois bolalar bilan birdek kattalarni ham jalb eta oladi. Uning “Tongda” deb nom olgan she’ri bolakay va xo‘rozning o‘zaro samimiy bellashuvi asosiga qurilgan bo‘lib, satrlari qisqa va yosh kitobxonni o‘ziga qiziqtira oladi. She’r bir bola tong sahardan ovul boshiga chiqib hushtak chalgani, uning hushtagi katta-kichikka birdek manzur bo‘lib, tong darakchisi bo‘lgan xo‘rozgagina hush kelmagani va oqibatda, ular o‘rtasidagi kelishmovchiliklar kelib chiqishi asosiga quriladi. Xo‘roz o‘zining vazifasini bajarayotgan bolaga nisbatan jahl otiga minganligi, ko‘cha-ko‘yda unga chang solayotgani she’rda ajoyib tasvirlab o‘tilgan. Bolakay bu ishlarga nuqta qo‘ymoqqa endigina bel bog‘laganida xo‘roz tulkiga yem bo‘lgani aytildi. Xo‘roz tulkining o‘ljasi bo‘lishi vositasida

“faqat o‘zim bo‘lishim kerak” deb o‘ylash xato ekanligi, baxillikning ko‘rolmaslikning oqibati qanday oqibatlarga olib kelishi to‘g‘risida bolajonlarga yaxshigina saboq berilgan. Shoirning “Kapada” deb nomlangan she’ri ham qisqa va mazmunli asarlari qatoridan joy olgan bo‘lib, bobo va nabiraning qovun pishadigan pallada kechasi dalada qo‘riqchilik qilayotgani, kechasi atrof-muhitning o‘zgacha tarovati, kishiga o‘zgacha huzur bag‘ishlashligi va nabira bilan bobosining samimiyligi suhbat olib borayotgani gavdalantiriladi. She’rda shunday so‘zlar tanlab yozilganki, uni o‘qib she’rdagi manzarani kitobxon ko‘z oldiga keltirishi mushkul emas. Bu shoirning badiiy mahoratidan dalolat beradi.

Shoir tabiatning bor husn-u tarovatini qog‘ozga qoralaydi va bu ijodi “Quyosh qayerdan chiqadi?” nomli she’rida aks ettirilgan. She’r quyoshning chiqish va botishida naqadar go‘zal manzara yuz berishi, burgut va chumolining hayot kechirishiga doir ajoyib o‘xhatishlar hamda quyoshning qayerdan chiqishi haqidagi savollar bilan boyitilgan. She’rni o‘qigan kitobxon ko‘z o‘ngida o‘z yashab turgan joyining tabiatini beixtiyor gavdalanadi va ona zaminga nisbatan samimiyligi muhabbat qaytadan jonlanadi. Tursunboy Adashboyev qalamiga mansub yana bir she’ri borki, uning sermazmun she’rlari qatorida kitobxonlarga necha vaqtlardan buyon manzur bo‘lib kelmoqda. “Olaqanotning polaponlariga nasihat” deb nomlangan she’r, ona qushning chug‘urchuqlariga nasihatni asosida boyitilgan. Polaponiga hayotda qanday yashash lozimligi, oziqlanishda nimalarga e’tibor berish kerakligi va qaysi qushlardan ehtiyot bo‘lishi haqida yo‘l-yo‘riq hamda ko‘rsatmalar beradi. Shoir she’rda qush va uning polaponi obrazida o‘zaro onaning bolasiga g‘amxo‘rliqi, endigina esini tanib boshlaganidan unga hayot saboqlarini asta-sekin berib borishi, beminnat mehri kabi o‘zbekona insoniy fazilatlarni yaqqol namoyon etadi. Haqiqatan ham ona bolasini tug‘ilganidan boshlab to qarilik chog‘ida ham unga to‘g‘ri yo‘l va kerakli nasihatlarni beradi. Ona uchun farzand necha yoshga kirsa ham farzandligicha, go‘dakligicha qoladi. Farzand bir umr onaning mehriga, nasihatiga muhtoj. Shoir xuddi shu nozik munosabatlarni qushlar tilida she’rida ochib beradi. Qushning uzum olganda shingilida qoldirmasligini aytganida, isrofgarchilikdan saqlash va har narsani yeyaverma, saralarini ye deb uqtirganida ochko‘zlikni qoralash kabi bolajonlar uchun tarbiyaviy da‘vatlarni ko‘rishimiz mumkin. Barcha o‘z farzandini eng yaxshilar qatorida ko‘rishni istagani singari ona qush ham polaponiga barcha qushlardan zo‘r bo‘lib yurishligini, o‘z rizqini, oshyonini birovga berib qo‘ymasligi lozimligini nasihat qiladi. Ushbu she’r o‘z tarbiyaviy ahamiyatiga ko‘ra she’riyatda yuqori pog‘onalarni egallashi bilan birga qiziqarliligi tufayli yosh kitobxonlarni o‘ziga jalb etadi.

“Tuproq” she’ri o‘zida olam-olam manoni mujassamlashtirgan asarlardan sanaladi. Qisqa va bir qarashda g‘oyatda jo‘ndek ko‘ringan ushbu she’rda tuproqning naqadar azizligi, otabobolarimizdan meros bo‘lib necha asrlardan buyon ne-ne kunlarga guvoh bo‘lib kelayotganligi, to‘kin dasturxonimiz va dorulomon kunlarimizning ham sababchisi xuddi shu tuproq ekanligi she’rda go‘zal jumlalar bilan tasvirlangan. Urush yillarida yaxshi-yu, yomonning qoni to‘kilganda, bahor chog‘i lola-qizg‘aldoqlar go‘zallikka burkanganda, insonning oq va qora kunlari barcha-barchasiga ona Vatanimizning muqaddas tuprog‘i guvoh bo‘ladi. She’rdagi uni o‘qigan kitobxonda yashab turgan zaminga nisbatan mehr va muhabbat uyg‘otishga xizmat qiluvchi satrlar uning badiiy qimmatini yanada oshiradi. Bizni o‘z ne’matlari bilan rizqlantiruvchi ham va oxir-oqibat bir umrga o‘z bag‘riga olguvchi ham biz tug‘ilib o‘sigan tuproq sanaladi. She’r nafaqat bolajonlarni, balki kattalarni ham bir muddat o‘yga toldiruvchi va o‘z yashab turgan zaminiga nisbatan o‘zgacha mehr uyg‘otuvchi asarlar sirasiga kiradi.

Shoirning qaysi ijod namunasini olmaylik, unda ona Vatanni, tabiatni, jonajon o‘lkasini qadrlash va asrab-avaylash kayfiyatini tug‘diruvchi da‘vatni ko‘ramiz. Har bir satrlari kishida

zaminga muhabbat va sadoqat tuyg‘ularining yanada mavjlanishiga ko‘maklashadi. Kishida shukronalik hissini uyg‘otadi. Olamga o‘zgacha nigohda boqishiga yordam beradi. Uning ijodidan qisqa bir satrni o‘qib ko‘rgan kitobxon undagi mazmun va g‘oyasiga oshiq bo‘lgan holda boshqa-boshqa asarlarini topib o‘qimoqqa bel bog‘laydi. Kitobxoni shunday rom etmoqlik har qanday shoirning qo‘lidan kelmaydi. Bu Tursunboy Adashboyevning chinakam yutug‘i deb be’malol aytishimiz mumkin.

Bolalar yozuvchisining mahorati – bu faqatgina dunyoni bolalar ko‘zi bilan ko‘rish va idrok etishgina emas, balki o‘z mahorati natijasini idroki keng o‘quvchilar ommasiga yoqimli tarzda namoyon qilishdir. Shunday ekan, yozilgan har bir satr kishini o‘ziga rom etishi, badiiy jihatdan to‘kislikka ega bo‘lishi va qisqa bo‘lsa-da, tarbiyaviy g‘oyani mujassamlashtirishi darkor. Nazarimizda, Tursunboy Adashboyevning badiiy mahorati ham aynan dunyoni bolalar ko‘zi bilan ko‘ra olishi, idrok etishi va uni o‘quvchiga shu tarzda yetkazishi bilan alohida qiymatga ega bo‘lib belgilanadi. Bog‘bonlarning dov-daraxtlarning soch-soqolini qiyishi, oqlangan daraxtlarning oppoq paypoq kiyishi (“Hasharda”), bahorning qishni burnidan tarnovga osib qo‘yishi (“Sumalak”), chaqmoqning ko‘kda yong‘oq chaqishi (“Bahor kelgach”), Asqar tog‘dan tushayotgan suvning qoyalarda yanchilishi, qarag‘ayning ko‘kka sanchilishi, qorli cho‘qqining qirg‘iz tumog‘iga o‘xshatilishi (“Sarichelak”), ayiqning piymasini ivitishi-yu quyonning oq tivitdan o‘ziga po‘stin tikishi, yashil taroq archalarning shamolning sochlarini tarashi-yu oq yaktakli qayinlarning zaraldoq taqishi (“Qish”) aslida bolalarcha tasavvur va idrok mahsulidir. Obrazlarni joy-joyida tanlab, betakror o‘xshatishlar yarata olish qobiliyati adib ijodini yuqori pog‘onalarni zabit etishi uchun tamal toshi bo‘lib xizmat qiladi. Inson tabiat farzandi sifatida bolaligidan boshlab uning sir-sinoatini, nozikliklarini bilishga qiziqadi. Maysa-ko‘katlar-u, dov-daraxtlarning nish urib ko‘karishidan tortib, to yugurib-qovjirab qolgunigacha bo‘lgan davrdagi turfa holatlari, umuman, quyosh, suv, tuproq, havo uyg‘unligining o‘ziga xos qonuniyati azaliy muammo tarzida insoniyatni bolaligidan qiziqtirib keladi.

Xullas, Quddus Muhammadiy va Qudrat Hikmatlarning tabiatdagi ana shunday sir-asrorlar tasviri bilan bog‘liq ijodiy an‘analarini izchil davom ettirib kelayotgan Tursunboy Adashboyev asarlarida tabiatdagi har bir holat, manzara mo‘jizakorlik kasb etadi. Bahor elchisi bo‘lgan boychechak o‘zini oftobning parchasi deb biladi. Kuz faslida “oq yaktakli qayinlar” zaraldoqlar taqadi, zarg‘aldoqlar chag‘chag‘lab qushlarga gap tayinlaydi. Juda g‘aroyib manzara, shunday emasmi? T.Adashboyev ijodini kuzatgan zukko kitobxon uning uchun ona tabiat bitmas-tuganmas ilhom manbai bo‘lib, tabiatdagi jonli va jonsiz jamiki mavjudotga tegishli har bir holat, manzara tufayli bolalarcha hayratlarga cho‘mgan ijodkor tasavvurida o‘zgacha bir olam yaralganiga guvoh bo‘ladi. Muhimi, shoir xayolotida yaralgan ana shu badiiy olam boshqalarni ham befarq qoldirmaydi.

### Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O‘zbek bolalar adabiyoti va adabiy jarayon. – Toshkent: “Fan”, 1989. –246-b.
2. Adashboyev T. Orzularim – qo‘sh qanotim. –Toshkent: “Sharq”, 2003. –137-b.
3. Bolalar adabiyoti va zamонавиylк. – Toshkent: “Fan”, 1981. –283-b.
4. Rahimova G. Ona tili va adabiyot (bolalar adabiyoti). O‘quv qo‘llanma. Samarqand: SamDU nashri, 2022. – 308-b.
5. Qarshiyevna, R. G. (2023). BOSHLANG’ICH SINF O’QUVCHILARIDA KITOBOXONLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH. " ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION, 10(1).

- Actual problems in higher education in the era of globalization
6. Gulbahor, R. (2023, April). O'QUVCHILARNING KREATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISHDA MATN VA RASMLARNING O'RNI. In " Conference on Universal Science Research 2023" (Vol. 1, No. 4, pp. 33-36).
  7. Rahimova, G., & Akramova, S. (2023). Legendary Heroine Women of History" Tamaris" and" Queen Sondok". World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(2), 99-101.
  8. Rahimova, G., & Sh, F. (2023). ALISHER NAVOIY IJODIDA TA'LIM VA TARBIYA. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 4(1), 60-63.
  9. Rahimova, G., & Norbekova, S. (2022). ANVAR OBIDJON SHE'RIYATIDAGI YUMORISTIK MOTIVLARNING BOLALAR TARBIYASIDAGI AHAMIYATI. INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(10), 110-113.

